OROL DENGIZI KECHA, BUGUN HAMDA ERTA MISOLIDA

Abdulloyeva Go‘zal Xidirboy qizi
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti
2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tobora cho‘llashib borayotgan Orol dengizi hududlariga cho‘llashishga zamin bo‘luvchi geografik sabablar hamda unga qarshi kurashish choralari to‘grisida ayrim malumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Cho‘llashish,Orol dengizi, O‘rta Osiyo, BMT,xo‘jalik, Amudaryo, Sirdaryo, saksovulzorlar, sug‘orma dehqonchilik.

Orol dengizi va unda yondosh hudud O‘rta Osiyo mintaqaviy ijtimoiy ekosistemasining shimolida joylashgan. Umumiy maydoni 47 ming km2 aholi soni 3 mln kishidan ortiqroq. Sovet hokimyati yillarida ilgari ko‘chmanchi chorvachilik va sug‘oriladigan dehqonchilik mavjud bo‘lgan. Orol buyi jadal sug‘orishga asoslangan ko‘p tarmoqli qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish o‘lkasiga aylandi. 1950 yil Orol xavfzasida 2,9 mln gektar yer sug‘orilardi. Hozirga kelib sug‘oriladigan yer maydoni 7 mln ga yetdi. Bu yerlar ittifoqda jami paxtaning 95 foizini, sholining 40 foizini, meva va uzumning uchdan dan bir qismini beradi. Orolning suv tizimi normaga yaqin bo‘lgan davrga nisbatan har yili qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish hajmi 3,8 dan 15,8 mln gacha o‘sib bordi. Aholi tez ko‘payishiga qaramay jon boshiga daromad 1,8 marta oshdi. Orol dengizi qita ichkarisidagi suvi oqib chiqib ketmaydigan tuzli hamda dengiz va ko‘p xislatlariga ega suv havzasidir. U Qozog‘iston va O‘zbekiston Respublikalarning tropic cho‘llari tashqarisida joylashgan. Dengizga Amudaryo va Sirdaryo suv yetkazib beradi.

Dengiz suv holati bir tomondan yuqori fikr etilgan daryolarning suv keltirishi, ikinchi tomondan suv yuzasidagi bug‘lanishlar bilan yuzaga keladi. Bu holatlar iqlimiy geotektonik va antropogen omillar dengizning morfologik jihatlari bilan bog‘liq 60 yillargacha Orol dengizi nisbatan barqaror edi. Amudaryo va Sirdaryoning unga tutashuvchi suvlari (yiliga 56 km3) va yog‘in-sochin suvlari (9 km3) dengiz yuzasidan bug‘lanadigan suv hajmini 65 km3 qoplardi. Bunda suv hafzasi maydoni 67 ming km2 ni hajmi 1064 km2 ni eng chuqur joyi 69rivojlantirish uchun lqaytarilmas suv iste‟molining o‘sishi shuningdek qator yillardagi qurg‘oqchilik Orol dengiziga daryo suvlari quyilishining asta-sekin kamayishiga hatto butunlay to‘xtab qolishga olib keladi. 90 yillar boshlariga kelib dengizning sathi 38 metrgacha pasaydi, suv hajmi 400 km3 gacha kamaydi. Minerallashuv 21 gr/l ga ko‘paydi. Paxta maydonlarini sug‘orish uchun suvdan bejtartib foydalanish keyingi yillarda orol dengiziga Amudaryo va Sirdaryo suvlarining keskin qisqarishiga olib keldi. Dengiz sathi 14 metardan ziyod

pasaydi, suv maydoni 60 yillar boshlaridagiga nisbatan uchdan birga kamaydi. Suv hajmi 60 % ga kamaydi. Amudaryo va Sirdaryo quyi oqimlarida daryolari suvining sifati yomonlashdi. Iste‟molga deyarlik yaramay qoldi. Yerlari qurg‘oqlashib sho‘rlanmoqda. Ekologik sistemasi hayvonot va o‘simlik dunpyosi chuqur inqirozga uchramoqda. Sug‘oriladigan yerlarning tuproq unumdorligi pasaymoqda. Natijada odamlar salomatligi uchun xavfli ekologik va sanitar epidemiologic vaziyat vujudga kelmoqda. Hozir (1985-90) Orol dengizining qurib qolgan tubi 26 ming km2 ga cho‘zilgan. Ana shu maydondan Orol dengizining hamma tomonga million tonnaga yaqin qum va chang uchib boradi. Keyingi yillarda iqlim ancha yomonlashdi. Orol dengizining chekinishi natijasida paydo bo‘lgan qurin qaqshab yotgan yerlar shamol ko‘taradigan chang to‘zon va tuzlar o‘chog‘idir. Chang-to‘zon 200 km dan ham uzoqqa yetib boradi. Atmosferaga har yili 15 mln tonnadan 75 mln tonnagacha chang ko‘tariladi. Keyingi yillarda O‘zbekiston olimlari Orol dengizining qurigan [tubini tadbiq qildilar. Ayro faza materiallaridan keng foydalanildi, ayrosuratlarga olish o‘tkazildi. Amudaryo deltasi asosan yumshoq qumloq yer va alyuvial (daryo suzlari oqizib kelgan) jinslardan tashkil topgan, kam sho‘rlangan. Bu yerda shamol va suvdan yemirilish uyg‘unlashib, o‘nqir-cho‘nqir murakkab relf hosil qiladi. Mustahkamalangan qumloq maydonlarda ko‘p yillik o‘simliklar – saksovul, yulg‘un, to‘qay nihollari va boshqalar yaxshi rivojlanmoqda. Orolning sharqiy qismidagi 1 mln gektarli oqtepa arxepalegi tuzlar to‘planishining eng yirik manbayidir. Bu arxepelak qizilqum shimoliy sharqiy qismining davom etib kelgan past baland va ariqsimon qumlaridan shakllangan. Balandligi 10-15 metr. Orol dengizi tubining qurigan doirasi mikrorelifi qatlamlar litalogiyasi ko‘rib borishning jadalligi va yer osti suvlarinign chuqur yoki yuza joylashganligiga qarab galageo kimyoviy jarayonlarning uzoq davomli bosqichi o‘tadi.

Orol mintaqasi ijtimoiy ekologik buxronning sabablari.

1. Ko‘p suv talab qiladigan ishlab chiqarishga mo‘ljallangan rivojlantirish, joylashtirish va ularning xomashyo xarakteri.

2. Qishloq xo‘jaligi ekinlarining ekologik jihatdan asoslanmagan tuzilmalari joriy qilinishi.

3. Bir qator xollarda yerlarni kengaytirish va sug‘orish ishlari sifatida e‟tibor bermay hosildorlikni past melioratsiyalash qiyin bo‘lgan zaminlash o‘zlashtirilgan.

4. ayrim hollarda sug‘orish tizimlarini loyixalashtirish, qurish ishlari sifatsiz bajarildi.

5. sug‘orish me‟yorlari ko‘p hosildorlikka erishishni o‘ylab yetarli asoslanmagan holda belgilandi.

6. Aholi hayot kechirish sifati yaxshilashga qaratilgan butun xo‘jalik siyosiy faoliyatining ijtimoiy mo‘ljallari kuchsiz edi.

Kishlok xujaligi va sanoat ishlab chikarishi bilan boglik xoldagi nisbatan kichik xududda axoli zichligi. Shuning uchun insonning kimyolashtirish xujalik va maishiy faoliyati natijasida - atrof muxitga salbiy ta‟siri seziladi.

Suv resurslarining tankisligi undan sugorish sanoat, maishiy turmush soxalarida keng foydalanish va uning ifloslanishi. Respublika xududining bir kismi tog oraliklarida bulgani uchun tabiat - iklim xususiyatlari bilan xavfli zona xisoblanadi. Markaziy Osiyoda suv resurslaridan asossiz va nourin foydalanish natijasida Orol va Orol buyi muammosi vujudga keladi.

Yerlarning kayta sho‘rlanishi va suvning yaroksizligi kuchayib bormokda. Usimliklardan foydalanish, chorvani betartib utlatish, tabiiy manzaraga rekracion tazziik respublikadagi ekotizimlarning maxsuldorligining kamayishga olib keladi.

Orol dengizi ilgari vaktda dunyodagi katta ichki dengizlardan bari xisoblanib, undan balikchilik, ovchilik, transport rekracion maksadlarda foydalanilar edi.. Dengiz suv rejimini unga kuyiladigan Amudaryo, Sirdaryo Yer osti suvlari xamda atmosfera yoginlari tushishi yuzadan suvning buglanishi tashkil etardi. Kadimgi davrda dengiz satxining 1,5-2 m uzgarishi tabiiy iklim xususiyatlari bilan boglik bulib suvning xajmi 100-150 kub km suv satxi maydoni 4000 kv. km ni tashkil etganOrol va Orol bo‘yida sodir bo‘layotgan jadal ravishdagi cho‘llanish xodisasi dunyo tajribasida uchratilmagan. Shuning uchun ham uni miqdor va sifat jixatidan baxolashda ancha qiyinchiliklarga duch kelinmoqda. Dengiz tubini ochilishi va daryo deltalarining qurishi hisobiga cho‘l maydonlari kengaymoqda. Ochilib qolgan 4mln gektar maydon yuzasi mayday tuz zarrachalari bilan qoplanib, yangi shakildahi qum qoplamlari hosil qiladi. Shunday qilib, Markaziy Osiyo xududi qum tuz aerozollarini shamol yordamida ko‘chirib yuruvchi kuchli yangi manba vujudga keldi. Dastlabki ma‟lumotlarga ko‘ra, yiliga atmosferaga 15-75 mln. tonnagacha chang-to‘zon ko‘tarilishi mumkin.

Dengiz tubidan ko‘tarilgan chang tuz to‘zoni atmosferani ifloslanishini 5 foizdan ham orttirib bormoqda. Chang tuz to‘zonlarini atmosferaga ko‘tarilishini birinchi marta 1975 yili kosmosdan kuzatilgan. Bunday to‘zonlar yilning uch oy davomida kuzatiladi. Chang-tuz to‘zonlarining uzunligi 400 km eni esa 40 km bo‘ladi, radiusi 300 km ni tashkil etadi.

Tuzlarning yer yuziga yog‘ilishi paxtaning hosildorligi 5-15 foiz, sholining esa 3-6 foizga pasayib ketdi. Orol bo‘yida yog‘ilayotgan chang-tuz zarrachalarning umumiy miqdori o‘rtacha 52 kg ni tashkil etib, tuproq holati yomonlashuvini asosiy sababchialridan biri bo‘lib qoldi. Qoraqalpog‘iston respublikasining sug‘oriladigan maydonlari chang-tuz fraksiyalari 250 kg dan, Chomboy tumanida 500 tonnagacha boradi. Sho‘rlangan qum-to‘zonlari yiliga Orol bo‘yidagi 15 mingga yaqin yaylovlarni egallab bormoqda. G‘o‘za uchun ajratilgan maydonlar kasallik qo‘zg‘atuvchi zararkunandalar bilan zararlangan. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarning hosili pasayib ketmoqda.

Amudaryoning yuqori oqimidagi hududlarida meliorativ holati yomonlashishi (Surxandaryo, Qashqadaryo, Buxoro, Samarqand) II kategoriyadagi yerlarning ko‘payishiga olib kelmoqda. Amudaryoning o‘rta oqimiga joylashgan Turkmanistonning suv xo‘jalik tumanlarida murakkab meliorativ holat kelib chiqmoqda. Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimlarida ko‘pchilik maydonlar qoniqarsiz meliorativ aholi bilan III va IV kategoriyaga mansub yerlar hisoblanadi. Sho‘rlangan, kuchli sho‘rlangan maydonlar 35-70 foizni tashkil etadi. Tuproqlarning sho‘rlanishi hisobiga qishloq xo‘jalik mahsulotlari hosili O‘zbekistonda 30 foiz, Turkmanistonda 40 foiz, Qozog‘isotnda 30-33 foiz, Tojikistonda 19 foiz, Qirg‘izistonda 20 foizga pasayib ketdi. Sho‘rlangan yerlar maydoni kundan-kunga ortib bormoqda. Qirg‘oqchilik tufayli iqlimning keskin kontinentanligi ortib ketdi. Dengiz va quruqlik o‘rtasidagi haroratni o‘zgarishi shamol tezligining ortishi suvning to‘lqinlanish xodisasini kuchayishiga olib keldi. Avvali qumlar ortiqcha namlikni yutishi hisobiga, namlikni doimo ushlab turishiga cho‘l o‘simliklarning rivojlanishiga yordam berar edi.

Kuchli sho‘rlangan yer osti suvlarining yuza joylanishi, cho‘llanish jarayonini kuchaytirmoqda. Amudaryo va Sirdaryo qirg‘oqlarining pasayishi natijasida daryoning quyi qismida suv toshqinlarini kamaytirib yubordi. Bu o‘z navbatida to‘qay o‘simliklari maydonlarini qisqarishiga ilgari gumusga boy bo‘lgan o‘tloqlar o‘tloq botqoqli tuproqlar unumsiz, o‘tloq taqir, cho‘l, qumli o‘tloqlarga ayalanishiga olib keladi. Sut emizuvchi hayvonlar va qushlar kamayib ketdi. Qurigan maydonlar aholi uchun xavfli kasallik tarqatuvchi kemiruvchilar bilan to‘lib bormoqda. Orol buyining epidemiologik ahvoli nihoyatda og‘ir. Aholining markazlashgan suv bilan ta‟minlash 29067 foizni tashkil etadi. Aholining yarmi ifloslangan ochiq suv xafzalaridan foydalanadi. Orol dengizini saqlab qolish mumkinmi? Orol muammosining asosini uning kdengiz sifatida saqlab qolishni tashkil etadi. Shuni ta‟kidlash lozimki Orol o‘z tarixi davomida ilmiy malumotlarga qaraganda ko‘p marta o‘z shaklini o‘zgartirgani va qurib qolgani malum.

Orol dengizi dastlabki absolyut balandligini tiklash uchun 100 m3km dan ortiq suv kerak bo‘ladi. Orolni saqlab qolish haqida hozirgi vaqtda bir necha fikrlar mavjud.

1. Orolni qanday bo‘lmasin qutqarish va avvalgi holatiga qaytarish zarur.

2. Orol dengiziga sathni barqaror bir sathga saqlab bo‘lmaydi, shuning uchun uni to‘liq qurishi muqarrar.

3. Orol sathini ma‟lum bir sathda saqlab qolish mumkin va uni amalgam oshirish zarur.

Birinchi fikr 1985 – 1987 yillarda O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi a‟zolari tomonidan va boshqa qardosh respublika yozuvchilari tomonidan ko‘plab quvvatlangan. Ikkinchi fikrni ba‟zi meliorativ va elegatorlar ko‘plab quvvatlamoqdalar. Ular barcha suvni yangi yerlarni o‘zlashtirish va sug‘orishga

sarflash kerak. Dengizni qutqarib bo‘lmaydi, uning qurishi muqarrar demoqda. Uchinchi fikr Orol muammosi bilan maxsus shug‘ullangan olimlar va mutaxassislar tomonidanm ko‘tarilgan. Ular o‘z fikrlarini ushbu muammo uslubida olib brogan ko‘p yillik ilmiy izlanishlari asosida tushuntirib dengizning barcha ekologik va ijtimiy-iqtisodiy ahamiyati to‘g‘ri tahlil qilingan holda, uning sathini ma‘lum mutloq balandlikda saqlab qolish mumkinligini isbotlab berdilar.

Orol dengizi dastlabki mutloq balandlikka (53 m) ko‘tarishni iloji yo‘q.

Oliy maktablarda ekologiya ta‘limi, tabiat muxofazasi masalalarning ilmiy asoslarini chuqur va har tomonlama o‘rganishga inson faoliyati natijasida biosferada ro‘y berayotgan xodisalarning sabab va qonuniyatlarini tahlil etish maqsadlariga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Gerasimov I P ekalogicheskie problem’ v prrshloy nostoyashiy ibudushey geografii mir M Nauka 1985

2. Izrael’ Yu A ekalogiya ikontrol sostoyaniya prirodnoy sred’ M Gidrameteozdat 1984

3. Manitoring prirodnoy Srediu v basseyne Aral’kogo morya L Gidrometedizdat 1991

4. Berg L. S, Aralskoye more, SPB,1908;

5. Shuls V. L., Mashrapov R., O‘rta Osiyo gidrografiyasi, T., 1969;

6.Rafikov A. A.,Tetyu yan G. F., Snijeniye urovnya Aralskogo morya i izmeneniye prirodnix usloviy nizovyev Amudari, T., 1981;

7. Glazove kiy A. F., Aralskiy krizis, M., 1990; Akramov 3., Rafikov A. A., Proshloye, nastoyasheye i budusheye Aralskogo morya, T., 1990;

8.Xikmatov B. F., Izucheniye dinamiki elementov vodnogo balansa i mineralizatsii Aralskogomorya, Dissertatsiya na soiskaniye akademicheskoy stepeni magistra gidrologii, T., 2003.